

MUSIQA VA TASVIRIY SAN'AT

Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi

ETNOMUSIQIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TARBIVAVIY SALOHİYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqiy etnopedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlari va shakllanish yo'llari, etnomusiqiy yondashuv, etnomusiqiy darslarda interfaol va raqamli vositalardan foydalanish, etnomusiqashunoslikda amaliy ijodiy faoliyat va musiqiy merosni notalashtirish, xalq qo'shiqlarini kundalik hayotda kontekstualashtirish, etnomusiqiy pedagogik yondashuvlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish, etnografik va musiqiy materiallardan unumli foydalanish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: etnomusiqiy pedagogik texnologiyalar; musiqa ta'limi; o'zbek musiqa folklori; milliy komponent rivojlanishiga ko'maklashuvchi omillar; etnopedagogika; texnologiya; maktab ta'lim muhiti.

ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ЭТНОМУЗЫКАЛЬНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются основные характеристики и способы формирования музыкально-этнопедагогических технологий, этномузыкальный подход, использование интерактивных и цифровых инструментов на занятиях, практическая творческая деятельность в области этномузыкалогии и фиксация музыкального наследия, контекстуализация народных песен в повседневной жизни, организация уроков с применением этномузыкальных педагогических подходов, а также методы эффективного использования этнографических и музыкальных материалов.

Ключевые слова: этномузыкальные педагогические технологии; музыкальное образование; узбекский музыкальный фольклор; факторы, способствующие развитию национального компонента; этнопедагогика; технология; школьная образовательная среда.

THE EDUCATIONAL POTENTIAL OF ETHNOMUSICAL PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Abstract. The article examines the key characteristics and development methods of musical-ethnopedagogical technologies, the ethnomusical approach, the use of interactive and digital tools in the classroom, practical creative activities in the field of ethnomusicology and the documentation of musical heritage, the contextualization of folk songs in everyday life, the organization of lessons employing ethnomusical pedagogical approaches, and methods for the effective use of ethnographic and musical materials.

Keywords: ethnomusical pedagogical technologies; music education; Uzbek musical folklore; factors contributing to the development of the national component; ethnopedagogy; technology; school educational environment.

Kirish. Musiqiy pedagogikadagi ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida tizimli ravishda qo'llaniladigan usullar, shakllar, ta'lim vositalari va o'qitish uslublari majmuasini tashkil etadi. Ular o'quvchining musiqa ta'limi, estetik tarbiyasi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiluvchi muhim vositadir. Bundan tashqari, musiqiy ta'lim texnologiyalari o'qituvchilarning ijroviy texnik

178 mahorati yoki axborot vositalari orqali o'quvchilarga ta'sir qilish usullariga oid alohida tadqiqot sohasini ifodalaydi. Har bir o'qituvchini musiqa fanini o'qitish uslubining yaratuvchisi deb hisoblash mumkin, garchi bu "ijod" o'z ichiga turli o'zlashtirmalarni olgan bo'lsa ham.

Zamonaviy musiqiy pedagogikada ta'lim texnologiyasini aniqroq tushunish uchun ushbu jarayonning evolyutsion mantiqini ko'rib chiqish kerak. Musiqiy pedagogikasining paydo bo'lishining dastlabki bosqichlarida bu jarayon taqlidiy faoliyat xarakteri bilan ajralib turadi. Musiqiy ta'lim-tarbiya sohasi bo'yicha to'plangan tajriba jamiyat tomonidan uzatilib, o'sib kelayotgan avlod tomonidan bevosita amaliy faoliyat orqali o'zlashtirildi. Bolalarning oila va jamiyat hayotining turli jabhalarida, jumladan musiqiy hayotga bevosita jalb qilinganligi ularning musiqiy-estetik qarashlarini ijobiy tomonga o'zgartira boshlagan. Musiqiy bilimlarni uzatish texnologiyasi insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida ancha vaqt davomida mavjud bo'lib, musiqiy faoliyat jarayonining ma'lum bir rivojlanish darajasiga hissa qo'shgan. O'sib kelayotgan avlodning musiqa sohasidagi bevosita amaliy faoliyati natijasida ularda tegishli musiqiy ko'nikma va malakalarning shakllantirilishi – bugungi kunda ta'limning eng muhim vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. Musiqiy ta'limning boshlang'ich bosqichida o'quvchilarni kelajakda egallashi mumkin bo'lgan kasblaridan qat'i nazar, amaliy faoliyatning barcha asosiy turlariga tayyorlash maqsad qilingani bejiz emas. Shu sababli, o'quv jarayonining o'zi hali ham, birinchi navbatda, muloqot, arifmetika, o'qish, yozish va hokazolarda ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishdan boshlanadi.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda musiqa ta'limi tizimi oldida nafaqat musiqa pedagogikasining ilg'or an'alarini saqlab qolish, balki eng samarali zamonaviy texnologiyalarni sintez qilish va joriy etish vazifasi turibdi. Bu borada etnopedagogik texnologiyalar alohida e'tiborga loyiqdir. Bu holat O'zbekiston ta'lim tizimining barcha turlari singari musiqiy ta'limida ham milliy jihatning rivojlanishi hamda milliy-musiqiy madaniyat orqali ta'lim oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish zarurati bilan bog'liqdir, zero, zamonaviy musiqiy ta'limning asosiy maqsadi — ijodkor, bag'rikeng va hayotda faol pozitsiyaga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Shu o'rinda etnopedagogik texnologiyalarning maqsadi xususida to'xtalib o'tsak, u quyidagilarni o'zida qamrab oladi:

- etnopedagogik texnologiyalar ta'lim oluvchilarni o'z xalqlarining madaniyati bilan tanishtirish;

- milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish;
- turli etnik guruhlar vakillariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini tarbiyalash;
- milliy qadriyatlarni o'rganish va qabul qilishga doimiy qiziqishni rivojlantirish, etnik-madaniy kompetentsiyani rivojlantirish.

Shular asosida musiqiy etnopedagogik texnologiyalar tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak – u yosh avlodga xalq og'zaki ijodi, milliy cholg'uchilik, an'anaviy qo'shiqchilik va urf-odatlar orqali tarbiya berishda zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtiruvchi pedagogik usullar tizimidir. Musiqiy etnopedagogik texnologiyalar milliy merosni interfaol usullar yordamida ta'lim oluvchilarga yetkazishga xizmat qiladi.

Musiqiy etnopedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlari va shakllanish yo'llari quyidagilardan iborat:

1. Etnomusiqiy yondashuv — bu turli xalqlar, etnik guruhlar va madaniyatlarning an'anaviy musiqa merosini o'sha jamiyatning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va urf-odatlari kontekstida tadqiq etuvchi ilmiy-ijodiy usuldir. Bu yondashuv musiqa nafaqat san'at, balki milliy o'zlikni va ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi vosita ekanligini anglatadi. Ta'lim oluvchilar **tarixiy-madaniy tahlil qilishni o'rganishlari kerak. Shu maqsadda** folklor, dostonlar va maqomlar nafaqat badiiy asar sifatida, balki xalqimizning ijtimoiy hayoti, iqlimi va turmush tarzini aks ettiruvchi tarixiy hujjat sifatida o'rganiladi. Jumladan, maqom, lapar, yalla, baxshichilik san'ati va xalq cholg'ulari (dutor, doira, rubob) ijodiy merosi orqali estetik tarbiya berish nazarda tutilishi kerak.

2. Etnomusiqiy darslarda interfaol va raqamli vositalardan foydalanish: Bu jarayon milliy cholg'ularni chalishni o'rgatish, xalq qo'shiqlarini tahlil qilish va musiqa merosini chuqur

singdirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, darsni zerikarli emas, balki jonli va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

Etnomusiqiy pedagogik darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (masalan, Klaster, Bumerang, Aqliy hujum metodlari) hamda audiomateriallar, dasturiy ta'minotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, milliy cholg'ular qismlarini (masalan, rubob, dutor, g'ijjak) rasmlari bilan nomlarini bog'lash yoki etnomusiqiy terminlarni topish kabi tezkor viktorinalar tuzish. Shu o'rinda aytish mumkinki, interfaol va raqamli vositalardan foydalanish O'zbekiston xalq cholg'ulari, maqom asoslari yoki atoqli hofizlar ijodini interaktiv testlar orqali baholash uchun juda qulay. Ta'lim oluvchilar o'z smartfonlarida savollarga javob berib, musobaqalashadilar. Interfaol va raqamli vositalardan foydalanish yana shu bilan ahamiyatliki ular doston va xalq qo'shiqlarining matnlarini tez yodlash uchun maxsus kartochkalar yasashda yordam beradi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarga og'zaki an'anadagi xalq kuylarini raqamli ko'rinishga o'girish, ya'ni notalashtirish ko'nikmasini shakllantirish imkonini beradi. Interfaol va raqamli vositalarning etnomusiqiy mavzular bo'yicha uy vazifalarini berish, xalq cholg'ulari ijrosi bo'lgan audio/video materiallarni guruhga joylashtirish va baholashda foydalanishdagi roli ham juda keng. Ta'limda **YouTube platformasi ham alohida ahamiyat kasb etadi**. U O'zbekistonning turli viloyatlari folklori, baxshilar ijrosi va cholg'u ansambllarining video darsliklarini namoyish etish uchun asosiy media manba sifatida xizmat ko'rsatadi.

3. Etnomusiqashunoslikda amaliy ijodiy faoliyat: Bu jarayon xalq musiqa merosini o'rganish, saqlash va uni zamonaviy musiqa madaniyati bilan uyg'unlashtirish jarayoni hisoblanadi. Etnomusiqashunoslikning amaliy ijodiy faoliyati folklor ekspeditsiyalarida ashula va kuylarni yozib olish (notaga tushirish) hamda ularni amaliyotda qayta ishlash kabi ikki muhim yo'nalishni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, folklor ekspeditsiyachi xodimlar ekspeditsiya davomida kekxa baxshilar, ertakchilar va xalq hofizlarini topib, ularning asarlarini qog'ozga tushiradi hamda tasvirga/ovozga yozib oladi. Shuningdek, xalq ijodkorlari (baxshilar, shoirlar, qiziqchilar) repertuarini audio, video va yozma shaklda arxivlashtiradi.

4. Etnomusiqashunoslikda musiqiy merosni notalashtirish: Bu jarayon og'zaki an'anadagi xalq musiqasi (doston, maqom, lapar, yor-yor va hokazo)ni maxsus belgilar yordamida qog'ozga yoki raqamli ko'rinishga tushirishni o'z ichiga oladi. Bu usul merosni ilmiy o'rganish, saqlash va kelajak avlodga yetkazishda fundamental ahamiyatga ega. Etnomusiqashunoslikda notalashtirishning asosiy jihatlari o'ziga xos xususiyatlar va usullarga ega. Jumladan, xalq qo'shiqlari ijrosida ohangdorlik, turli milliy bezaklar (notalararo o'tishlar), mikrotonlar va ritmik erkinliklar mavjudligi sababli, mumtoz Yevropa nota tizimini ba'zida xalq musiqasining asl holatini to'liq ifodalashga ojizlik qiladi. **Raqamli texnologiyalar esa** notalashtirish jarayonini yengillashtirmoqda. Bu borada kompyuter dasturlari (masalan, *Finale*, *Sibelius*) ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, maxsus dasturlar yordamida folklor kuylarining chastotasi va tonalligi aniq tahlil qilinib, eng mukammal nota nusxalari tayyorlanmoqda. Shu o'rinda O'zbekistonda folklori notalashtirish ishlari V.A. Uspenskiy, E.N. Romanovskaya, Viktor Belyayev kabi olimlar tomonidan boshlangani, keyinchalik F. Karomatov, I. Rajabov, O. Matyoqubov kabi etnomusiqashunoslarimiz tomonidan yanada rivojlantirilganini aytish joiz. Ular xalq cholg'u kuylari va ashulalarni to'plab, ilmiy asosda nashr ettirishgan.

Milliy komponentning rivojlanishiga hissa qo'shuvchi omillardan biri o'qituvchining xalq musiqa san'atida to'plangan avlodlarning ma'naviy tajribasini yetkazish va yosh avlodni tarbiyalashdan iborat etnopedagogik faoliyatidir. Darslar xalq musiqa san'atining ma'naviy-badiiy mohiyatini idrok etishga, ular bilan bog'liq bilimlarni egallashga qaratilgan o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi muloqot va o'zaro munosabat shaklida bo'lishi kerak.

O'zbekistonda va xorijda xalq an'alaridan foydalanish amaliyotini o'rganish, zamonaviy musiqa dasturlarini ko'rib chiqish bilan birgalikda, o'zbek etnomusiqiy jarayonini ta'lim oluvchilarning rivojlanish bosqichlariga mos ravishda kiritish zarurligini ta'kidlaydi. Bu o'z navbatida xalq musiqasini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun pedagogik sharoitlarga e'tibor

berishni talab qiladi va shu nuqtai nazardan musiqa darslarining to'g'ri tashkil etilishi va metodologik jihatdan to'g'riligi alohida ahamiyatga ega. Bunga erishish uchun:

- o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida ma'naviy aloqani mustahkamlovchi, xalq musiqa san'atini tushunishga yordam beruvchi qulay hissiy muhitni yaratish zarur;
- etnografik va musiqiy materiallardan unumli foydalanish kerak;
- ta'lim oluvchilarning sensorimotor, ijrochilik, musiqiy-kognitiv va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida tasviriy usul, musiqiy ijroga asoslangan modellash, xalq qo'shiqlarini kundalik hayotda kontekstualashtirish, "musiqadan tashqariga chiqish", muvaffaqiyat holatlarini yaratish, muammoli so'rov metodi, ijodiy topshiriqlar kabi turli usul va uslublardan foydalanish kerak.

Etnomusiqiy pedagogik yondashuvlardan foydalangan holda darslar quyidagi asoslar bo'yicha tuzilishi mumkin:

1. Dars mavzusiga kirish: o'qituvchi musiqiy an'analar, musiqa urf-odatlarida qo'llanilishi, uning tarixiy jarayonlari, musiqa oid muayyan hodisalar yoki musiqa insoniy va jamoatchilik munosabati haqida gapirish; musiqiy hodisalarning axloqiy va estetik jihatlari haqida munozara yuritish; xalq musiqa durdonlaridan foydalanish;

2. Xalq musiqasi, an'analari materialidan foydalangan holda nutq mashqlarini bajarish, musiqa materialiga asoslangan artikulyatsiya mashqlarini amalga oshirish;

3. Ta'lim oluvchilarni musiqa materialini idrok etishga va ohanglashga tayyorlash, muvaffaqiyatli ishlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

4. Yangi musiqiy asarlarni o'rganish, maxsus ijro texnikasini rivojlantirish va ijro mahorati va badiiy uyg'unlik ustida ishlash;

5. Ta'lim oluvchilarni she'riy matnlar, qo'shiq kuylari va harakatlarini mustaqil ravishda o'zgartirishga, shuningdek, musiqiy o'yin va raqs harakatlarini improvizatsiya qilishga undash uchun mo'ljallangan ijodiy vazifalarni bajarish;

6. Avval o'rganilgan qo'shiqlar va musiqiy o'ynlarni takrorlash, ijodiy faollikni rivojlantirish.

Maktabdagi musiqa ta'limi sinfdagi o'qitishni sinfdan tashqari mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtiradi.

Maktabda musiqa ta'limi sinfdagi darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish orqali olib borilishi ta'lim oluvchilarning musiqiy qarashlarini boyitadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar musiqa va etnografiya muzeyi, vokal va raqs ansambli, xalq amaliy san'ati to'garagi, xalq cholg'ulari orkestri yoki ansambli, folklor ekspeditsiyalari, etnografik ko'rgazmalar, xalq sayillari kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin. Shunday qilib, etnomusiqiy pedagogik texnologiyadan foydalanilgan darslarda an'anaviy xalq madaniyati bilan aloqadorlikni rivojlantirishning barcha mumkin bo'lgan vositalaridan foydalaniladi, bu ta'lim oluvchining nafaqat turli etnik guruhlar madaniyatiga bo'lgan qiziqishlarini saqlab qolishlarini, balki bu musiqa mashg'ulotlarini yanada yuqori darajada davom ettirish istagini his qilishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurov M.A. Xalq og'zaki ijodida baxshichilik san'ati. Uslubiy qo'llanma. – «Educate Press» nashriyoti. – Toshkent: 2026.
2. Matyakubov O. O'zbek an'anaviy musiqasi. – T: Musiq, 2004.
3. G'affarova T., Shodmonov Sh. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2019.
4. Karimova D.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zMU, 2020.